


QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2020- yil yanvar-fevral)


2020- yil yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, respublikada tashqi savdo aylanmasi 86,3 mln. AQSh dollariga yetib, 2019- yilning shu davriga nisbatan 69,6 % ni tashkil qildi. Shu jumladan, eksport hajmi 58,7 mln. AQSh dollarga va import hajmi 27,6 mln. AQSh dollariga yetdi. Tashqi savdo saldosi 31,1 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi
(mln. AQSh dollari)




2020- yilning yanvar-fevral oylarida, respublika tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 40,0 % ni tashkil etib, 2019- yilning shu davriga nisbatan 77,1 % ni tashkil qilgan, boshqa davlatlarning ulushi esa 60,0 % bo'lib, 2019- yilning shu davriga nisbatan 65,4 % ni tashkil qilgan. Shuningdek, eksport hajmida MDH davlatlari 41,8 % ni, boshqa davlatlar 58,2 % ni va import hajmida MDH davlatlari 36,1 % ni, boshqa davlatlar 63,9 % ni tashkil qildi.

**2020- yil yanvar-fevral oylarida respublika tashqi savdo aylanmasida
MDH va boshqa davlatlarning ulushi**
(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)



Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2020- yilning fevral oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar, yanvar oyiga nisbatan 3,4 mln. AQSh dollarga kam eksport qilindi va 27,6 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Tovar va xizmatlar importi hajmi esa 14,4 mln. AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lib, bu esa yanvar oyiga nisbatan 1,2 mln. AQSh dollariga ko'proqdir.

**2020- yil yanvar-fevralida tovar va xizmatlarning oylik
eksport-import ko'rsatkichlari dinamikasi**
(mln. AQSh dollari)



2020- yil yanvar-fevral oylarida respublika tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar ketma-ketligi quyidagicha ko'rinish olgan:

**Respublika tashqi savdo aylanmasida
yuqori ulushga ega davlatlar**

(mln. AQSh dollari)

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi	
				ulushi, % da	o'zgarish sur'ati, % da
Rossiya	23,4	17,8	5,7	27,1	77,5
Xitoy	22,5	16,0	6,4	26,0	66,4
Turkiya	10,5	9,9	0,6	12,1	65,7
Qozog'iston	10,2	6,2	3,9	11,8	90,3
Latviya	6,3	5,7	0,6	7,3	152,1
Koreya Respublikasi	5,1	0,2	4,8	5,9	65,5
Vyetnam	1,6	-	1,6	1,9	177,4
Bangladesh	0,8	0,8	-	0,9	-
Shveytsariya	0,7	-	0,7	0,8	22,6 b.
Eron	0,6	-	0,6	0,7	70,5
Iroq	0,6	0,6	-	0,7	168,6
AQSH	0,4	0,1	0,3	0,5	131,5
Pokiston	0,4	0,4	-	0,5	-

Respublikamizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2020- yil yanvar-fevral oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 40,0 % ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasining o'sish sur'ati 2019- yilning shu davriga nisbatan 77,1 % ni tashkil etdi. Boshqa xorijiy davlatlarning respublika tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2019- yilning yanvar-fevral oylarida 63,9 % ni tashkil qilgan bo'lsa, 2020- yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 60,0 % ga yetdi.

**Qoraqalpog'iston Respublikasining ayrim hamkor
davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi**

(mln. AQSh dollari)


Davlat nomi	2018- yil yanvar-fevral	2019- yil yanvar-fevral	2020- yil yanvar-fevral
Rossiya	30,9	30,2	23,4
eksport	21,8	25,4	17,8
Import	9,1	4,8	5,6
saldo	12,7	20,6	12,2
Xitoy	31,1	33,8	22,5
eksport	22,9	13,7	16,1
import	8,2	20,1	6,4
saldo	14,7	-6,4	9,7
Turkiya	14,8	16,0	10,5
eksport	13,9	9,9	9,9
import	0,9	6,1	0,6
saldo	13,0	3,8	9,3
Qozog'iston	11,6	11,3	10,2
eksport	9,2	8,7	6,3
import	2,4	2,6	3,9
saldo	6,8	6,1	2,4
Latviya	3,8	4,1	6,3
eksport	3,7	3,9	5,7
import	0,1	0,2	0,6
saldo	3,6	3,7	5,1
Koreya Respublikasi	0,7	7,7	5,1
eksport	0,2	2,3	0,3
import	0,5	5,4	4,8
saldo	-0,3	-3,1	-4,5
Vyetnam	0,5	0,9	1,6

Davlat nomi	2018- yil yanvar-fevral	2019- yil yanvar-fevral	2020- yil yanvar-fevral
eksport	0,3	-	-
import	0,2	0,9	1,6
saldo	0,1	-0,9	-1,6
Bangladesh	0,1	-	0,8
eksport	0,1	-	0,8
import	-	-	-
saldo	0,1	-	0,8
Shveytsariya	-	-	0,7
eksport	-	-	-
import	-	-	0,7
saldo	-	-	-0,7
Eron	-	0,9	0,6
eksport	-	-	-
import	-	0,9	0,6
saldo	-	-0,9	-0,6
Iroq	0,3	0,3	0,6
eksport	0,3	0,3	0,6
import	-	-	-
saldo	0,3	0,3	0,6
AQSH	0,1	0,3	0,4
eksport	-	-	0,1
import	0,1	0,3	0,3
saldo	-0,1	-0,3	-0,2
Pokiston	0,2	-	0,4
eksport	0,2	-	0,4
import	-	-	-
saldo	0,2	-	0,4


EKSPORT

2020- yil yanvar-fevral oylarida eksport hajmi 58,7 mln. AQSh dollariga teng bo'ldi. Eksport tarkibida tovarlar 99,2 % ulushga ega, bular asosan kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (73,8 %), oziq-ovqat mahsulotlari (7,9 %) guruhlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi (ming AQSh dollari)



Tovar va xizmatlar eksporti ulushi, (% da)




Eksport tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	2019- yilning shu davriga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh doll.	2019- yilning shu davriga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh doll.	2019- yilning shu davriga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da
Eksport	58,7	86,5	100	24,5	68,2	100	34,1	107,0	100
Paxta-tolasi	2,9	-	5,0	-	-	-	2,9	-	8,6
Oziq-ovqat mahsulotlari	4,7	129,7	7,9	1,5	166,0	6,1	3,1	117,4	9,2
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	43,3	73,3	73,8	19,7	58,6	80,2	23,6	92,6	69,2
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	0,1	7,9	0,3	-	-	-	0,1	14,2	0,4
Mashina va asbob-uskunalar	0,1	1426,0 b.	0,1	-	-	-	0,1	-	0,2
Xizmatlar	0,5	182,1	0,8	0,4	164,7	1,6	0,1	3,2 b.	0,3
Boshqalar	7,1	2,3 b.	12,1	3,0	7,3 b.	12,1	4,1	154,7	12,1

Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'zgarish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, 2020- yilning yanvar-fevral oylari davomida eng yuqori o'zgarish sur'ati yanvar oyida kuzatilgan.

Tovar va xizmatlar eksportining o'zgarish sur'atlari (o'tgan oyga nisbatan, % da)




Shuningdek, tovar va xizmatlar eksporti o'zgarish sur'atlarining tahliliga asosan, 2020- yilning fevral oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar yanvar oyiga nisbatan 1,2 % ga kamaygan.

Xizmatlar eksporti hajmi 0,5 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 0,8 % ini tashkil etib, 2019- yilning shu davriga nisbatan 182,1 % ni tashkil etdi.


Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (57,9 %), safarlar (27,8 %) va moliyaviy xizmatlar (13,3 %) hissasiga to'g'ri keladi.

Xizmatlar eksporti tarkibi, (% da)




Tovar va xizmatlar eksporti dinamikasi tahliliga ko'ra, 2020- yilning fevral oyi mobaynida eksport qilingan tovarlar hajmi, yanvar oyiga nisbatan 3,4 mln. AQSh dollariga kam eksport qilindi va 27,4 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar eksporti esa 0,2 mln. AQSh dollariga yetgan.

2020- yil yanvar-fevralida tovarlar va xizmatlar eksporti dinamikasi
(oylar kesimida, mln. AQSh dollari)




Respublika eksportida asosiy hamkor davlatlarning ulushi, (% da)
(yanvar-fevral)

2019- yil



2020- yil



Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Xitoy va Turkiya hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 74,4 % ini tashkil qiladi. Rossiya Federatsiyasi, Xitoy va Turkiyaga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlardan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin.

**Qoraqalpog'iston Respublikasining
asosiy hamkor davlatlarga amalga oshirgan eksport hajmi**

Davlat nomi	Mln. AQSh doll.		Ulushi, % da		O'zni	
	2019- y. yanvar- fevral	2020- y. yanvar- fevral	2019- y. yanvar- fevral	2020- y. yanvar- fevral	2019- y. yanvar- fevral	2020- y. yanvar- fevral
Rossiya	25,5	17,8	37,5	30,2	1	1
Xitoy	13,7	16,0	20,3	27,3	2	2
Turkiya	9,9	9,9	14,6	16,9	3	3
Qozog'iston	8,6	6,2	12,7	10,6	4	4
Latviya	3,9	5,7	5,7	9,6	5	5
Bangladesh	-	0,8	-	1,3	10	6
Iroq	0,3	0,6	0,5	1,0	9	7
Pokiston	-	0,4	-	0,7	11	8
Koreya Respublikasi	2,3	0,2	3,5	0,4	6	9
Tojikiston	0,4	0,2	0,6	0,3	8	10
Qirg'iziston Respublikasi	1,0	0,2	1,4	0,3	7	11

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2020- yilning yanvar-fevral oylarida jami 7 904,1 tonna meva-sabzavot mahsulotlari 1 487,6 ming AQSh dollariga eksport qilindi (o'sish sur'ati – 144,9 %). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2020- yilning yanvar-fevral oylarida 7 694,2 tonna sabzavotlar 1 334,3 ming AQSh dollariga eksport qilingan.

Shuningdek, 57,4 tonna meva va rezavorlar 52,5 ming AQSh dollariga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan 134,3 tonnaga kamaygan.

Meva-sabzavot mahsulotlarining tarkibi





Shuni aytib o'tish joizki, mamlakatimizda eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni eksport qilish hajmi oshib bormoqda. Jumladan, 2020- yilning yanvar-fevral oylarida sabzavotlar eksporti hajmi 1 334,3 ming AQSh dollariga yetdi (2019- yilning mos davriga nisbatan 2,3 barobarga o'sgan).

**Respublikamizda yetishtirilgan meva va sabzavot mahsulotlarining
asosiy bozorlari eksport geografiyasi**

Davlat nomi	2019- yil yanvar-fevral			2020- yil yanvar-fevral		
	tonna	ming AQSh doll.	ulushi, % da	tonna	ming AQSh doll.	ulushi, % da
Qozog'iston	1 564,8	763,5	74,4	7 727,2	1 418,8	95,4
Rossiya	270,3	66,3	6,5	129,4	35,5	2,4
Iroq	-	-	-	47,5	33,3	2,2


Meva va sabzavot mahsulotlarining tarkibi
(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)




IMPORT

2020- yilning yanvar-fevral oylarida import hajmi 27,6 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019- yilning shu davriga nisbatan 51,8 % ga kamaydi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob-uskunalar (40,4 %), oziq-ovqat mahsulotlari (17,8 %), kimyo mahsulotlari va buyumlari (13,2 %) va xizmatlar (9,1 %) guruhlariga to'g'ri keldi.

Tovar va xizmatlar importi tarkibi (ming AQSh dollari)



Tovar va xizmatlar importi ulushi, (% da)




Import tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	2019- yilning shu davriga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh doll.	2019- yilning shu davriga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh doll.	2019- yilning shu davriga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da
Import	27,6	49,2	100	10,0	112,9	100	17,6	17,6	100
Oziq-ovqat mahsulotlari	4,9	147,0	17,8	4,7	149,8	46,8	0,2	108,1	1,4
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	3,7	85,9	13,2	0,2	70,2	1,6	3,5	86,8	19,8
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	0,5	109,2	1,6	0,1	3,4 b.	1,0	0,4	91,6	2,0
Qora va rangli metallar	0,3	73,0	1,2	-	3,4 b.	0,3	0,3	68,1	1,7
Mashina va asbob-uskunalar	11,1	29,4	40,4	1,8	122,7	17,6	9,3	25,7	53,2
Xizmatlar	2,5	92,6	9,1	-	4,5	0,2	2,5	112,1	14,1
Boshqalar	4,6	66,1	16,7	3,2	91,8	32,5	1,4	40,0	7,8

Import qilingan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'zgarish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, 2020- yilning yanvar-fevral oylari davomida eng yuqori o'sish sur'atlari fevral oyida kuzatilgan.

Tovarlar va xizmatlar importining o'zgarish sur'atlari dinamikasi
(o'tgan oyga nisbatan, % da)




Shuningdek, tovar va xizmatlar importi o'zgarish sur'atlarining tahliliga asosan, 2020- yilning fevral oyida import qilingan tovar va xizmatlar yanvar oyiga nisbatan 66,6 % ga ko'paygan.

Qoraqalpog'iston Respublikasiga
asosiy hamkor davlatlardan amalga oshirilgan import hajmi

Davlat nomi	Mln. AQSh doll.		Ulushi, % da		O'rni	
	2019- y. yanvar- fevral	2020- y. yanvar- fevral	2019- y. yanvar- fevral	2020- y. yanvar- fevral	2019- y. yanvar- fevral	2020- y. yanvar- fevral
Xitoy	20,1	6,4	35,8	23,3	1	1
Rossiya	4,8	5,7	8,5	20,6	4	2
Koreya Respublikasi	5,4	4,8	9,6	17,4	3	3
Qozog'iston	2,6	3,9	4,7	14,2	5	4
Vyetnam	0,9	1,6	1,6	5,9	6	5

Shveytsariya	-	0,7	0,1	2,6	11	6
Latviya	0,2	0,6	0,4	2,3	10	7
Eron	0,9	0,6	1,5	2,2	7	8
Turkiya	6,1	0,6	10,8	2,1	2	9
AQSH	0,3	0,3	0,6	1,3	9	10
Polsha	0,5	0,2	0,8	0,8	8	11
Qatar	-	0,2	-	0,8	12	12


Xizmatlar importi tarkibi, (% da)



Xizmatlar importi hajmi 2,5 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 9,1 % ini tashkil etdi va 2019- yilning shu davriga nisbatan 92,6 % ni tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi boshqa ish yuzasidagi xizmatlar (89,8 %) hamda moliyaviy xizmatlar (7,3 %) dan iborat bo'ldi.

2020- yil yanvar-fevralda tovarlar va xizmatlar importi dinamikasi


(oylar kesimida, mln. AQSh dollari)




Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, respublikaga import qilinayotgan tovar va xizmatlar fevral oyida, yanvar oyiga nisbatan 1,2 mln. AQSh dollarga ko'p import qilingan bo'lib, shundan tovarlar 0,9 mln. AQSh dollarga ko'p import qilingan, xizmatlar esa 0,3 mln. AQSh dollarga ko'p import qilingan.

Respublika importida asosiy hamkor davlatlarning ulushi, (% da) (yanvar-fevral)

2019- yil



2020- yil



2020- yilning yanvar-fevral oylarida respublikaga 35 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 6 ta eng yirik bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Koreya Respublikasi, Qozog'iston, Vyetnam va Shveytsariya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 23,2 mln. AQSh dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 84,0 % ini tashkil qiladi.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilayotgan mashina va asbob-uskunalar, oziq-ovqat mahsulotlari hamda kimyo mahsulotlari va buyumlari asosan qaysi davlatlardan respublikamizga olib kirilayotganligini quyidagi sxemalardan ko'rish mumkin.

**Mashina va usbob-uskunalar import qilingan
asosiy hamkor davlatlar**

DAVLAT NOMI	XITOIY	ROSSIYA	VYETNAM	SHVEYTSARIYA	KOREYA RESPUBLIKASI
Ming AQSH doll.	4 770,6	1 658,0	1 621,3	728,9	481,1
2019- yilning shu davriga nisbatan, % da	24,6	3,8 b.	189,8	433,9 b.	36,0
Ulushi, % da	42,8	14,9	14,5	6,5	4,3

Oziq-ovqat mahsulotlari import qilingan asosiy hamkor davlatlar

DAVLAT NOMI	QOZOG'ISTON	ROSSIYA	POLSHA	ERON
Ming AQSH doll.	3 858,9	816,4	136,8	51,9
2019- yilning shu davriga nisbatan, % da	177,7	133,3	-	-
Ulushi, % da	78,5	16,6	2,8	1,1

Kimyo mahsulotlari va buyumlari import qilingan asosiy hamkor davlatlar

DAVLAT NOMI	KOREYA RESPUBLIKASI	XITOIY	ERON	QATAR	LATVIYA
Ming AQSH doll.	1 526,4	1 000,2	242,7	209,0	157,5
2019- yilning shu davriga nisbatan, % da	64,7	5,7 b.	55,0	-	181,5
Ulushi, % da	41,8	27,4	6,6	5,7	4,3

Yurtimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida mamlakatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi**
Tel.: 71 230-82-06